Yosh olimlarning onlayn konferensiyasi o’tkazildi

Joriy yil 15-may kuni O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yosh olimlar kengashi tomonidan “XXI asr intellektual yoshlar asri” mavzusida onlayn konferensiya o’tkazildi. Unda FA ilmiy-tadqiqot muassasalari yosh olimlari, Toshkent yuridik universiteti, Respublika ijtimoiy fikr markazi hamda Andijon viloyatidan ham olimlar ishtirok etishdi. Onlayn konferensiyada 3 ta - fizika-matematika-texnika, tabiiy hamda gumanitar fanlar yo’nalishlarida ma’ruzalar tinglandi. Ushbu konferensiya yosh olimlarning o’zaro fikr almashishlari, ilmiy izlanishlar natijalari bilan o’rtoqlashish uchun onlayn platforma vazifasini bajardi.

